

## ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA KERAKLI VA SAMARALI METODLAR

Kenjayeva Nilufar Anvarovna

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annatsiya:** *Mazkur maqola adabiyot faniga bag‘ishlanadi. Biz ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘qituvchi va o‘quvchi uchun birdek ma‘qul bo‘lgan metodlar yoxud uslublar haqida bahs yuritamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *Adabiyot, fan, ta’lim, bosqich, metod, uslub, innovatsiya*

**Abstract:** *This article is devoted to the science of literature. In this article, we will discuss methods or methods that are suitable for both the teacher and the student in literature classes.*

**Key words:** *Literature, science, education, stage, method, style, innovation*

So‘z boshida shuni ta’kidlab ketish joizki, hozir kunda jamiyat jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Yangi texnologiyalar, ilm-fanda kashf qilinayotgan hodisalar bunga misol bo‘la oladi, albatta. Bizning davlatimizda ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim sifatini yaxshilash uchun yangidan-yangi loyihalar va tashabbuslar amalga oshirilmogda, olimlarimiz va professorlarimiz tun-u kun izlanishda. Albatta, bularning hech biri besamar ketayotgani yo‘q, hamma o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatib kelmoqda. Biz ham ushbu maqolamiz orqali, yosh pedogoglarimizning ilmiga ozgina hissamiz qo‘shsak judayam xursand bo‘lamiz. Mazkur maqola adabiyot darsiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi uchun birdek mos tushuvchi qiziqarli metod, texnologiyalar saralab olingan. Dastavval, metod o‘zi nima degan savolga javob bersak. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish mumkin.

Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta’minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin. Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi shu tarzda o‘quvchilarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past o‘quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning sifati darsda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani

o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to‘g‘ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o‘tishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va o‘z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo‘lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o‘quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Innovatsion texnologiya – ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta‘lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Ko‘p yillar davomida an’anaviy dars o‘tish ta‘limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An’anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlashni taqozo etadi.

Metod (yun. “metodos” — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta‘limot) — vo-qelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Ya‘ni biz fanni metodlar orqali o‘tadigan bo‘lsak, bu quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Vaqt tejraladi;
- Mavzu mustahkamlanadi;
- Mavzu amaliyotda qo‘llaniladi;
- O‘quvchining zerikib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi;
- Darsning yaxshi o‘tishida o‘qituvchiga yaqindan ko‘mak beradi.

Bu kabi imkoniyatlar metodlarning naqadar dars uchun zarur ekanligini ko‘rsatib beradi, metodlarning xilma-xilligi bu o‘qituvchining mahoratidan darak beradi. Biz hozir adabiyot darsi uchun qulay bo‘lgan ayrim metodlar bilan o‘rtoqlashamiz.

- Tadqiqot metodi

Ushbu metod o‘quv jarayonida bir muncha qiyin bo‘lgan nazariy yo‘nalishdagi masalalar ko‘tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning nisbatan yuqori bosqichida ta‘limning samarali izlanish usullarini mustaqil ravishda qo‘llash talab qilinadi. Bunda o‘quvchilar dalil to‘plash va ulami nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi; amaliy ishlarini bajaradilar. Tadqiqot metodining Evristik metoddan farqi shundaki, «kashfiyot» avaldan ajratilgan materiallar tahlil qilinib, faktik materiallar umumlashirilganidan so‘ng, amaliy ish jarayonida sodir bo‘ladi. Bunda o‘quv-biluv faoliyatining to‘liq turkumini o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida o‘zlari bajaradilar. Ya‘ni ma‘lumot to‘plashdan tortib, uni tahlil qilish va yangi bilimlarni

amaliyotda qo‘llashgacha bo‘lgan ishlarning barchasini o‘quvchilar o‘zlari mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O‘quvchilar tomonidan faktik material to‘plash tadqiqot metodining zaruriy qismidir. Mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazish o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qituvchi o‘quvchilar ixtiyoriga dalillarni topish, ularni taqqoslash, tizimga solish, umumlashtirishni topshirgani bilan uning muammolik darajasi kamaymaydi. Tadqiqot metodini qo‘llashda topshiriqlarning o‘quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda ularning biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o‘z tadqiqiylikini yo‘qotadi.

- «6x6x6» metodi

Adabiy ta’lim jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan metodlarning yana biri «6x6x6» metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o‘qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o‘quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo‘linadi. Jami 36 o‘quvchi ishtirok etadi. O‘qituvchi istasa guruhlariga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e‘lon qilinib, ma‘lum vaqt belgilanadi. O‘quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o‘z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o‘qituvchi guruhlarining a‘zolarini almashtiradi. Yangi gurulida avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o‘z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a‘zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o‘rganadilar, unga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig‘ida o‘quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi. Sinfdagi o‘quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o‘quvchi va guruh a‘zolari oldindan aniq belgilab olmadi. 3. Har bir guruhga zehni va qobiliyatli hamda bo‘shroq o‘zlashtiradigan o‘quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a‘zolar bilan to‘ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. Guruh rahbari va a‘zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o‘tirishi, guruhning har bir a‘zosi bir-birini ko‘rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g‘oyalari e‘tibor berib boriladi. Yaxshi g‘oya egalari rag‘batlantiriladi

- Fikriy hujum

«Fikriy hujum» metodining maqsadi o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish, ma‘lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta‘minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar bilan o‘quvchilar loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi va ular bezovta ruhiyat bilan badiiy muammoga, o‘quv topshirig‘iga «hujum» qiladilar. Ya‘ni har bir o‘quvchi o‘z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. O‘quvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan muayyari masala bo‘yicha mulohaza yuritadilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- <https://uz.m.wikipedia.org>
- <http://library.navoiy-uni.uz>

- <https://arxiv.uz>
- <http://portal.guldu.uz>